



## XALQ DEPUTATLARI QUMQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Qumqo'rg'on tumani, O'zbekiston shoh ko'chasi 1-uy. 190900, tel.: (+99876)46-52-511

2022 - yil 25 - mart

VI-43-38-8-114-K/22

Qumqo'rg'on tuman hokimligi

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-apreldagi "2021-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-5094-son qarori ijrosi yuzasidan Qumqo'rg'on tumanida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash borasida olib borilgan ishlar to'g'risida tuman bandlikka ko'maklashish markazi direktori U.Safarovning hisoboti to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-apreldagi "2021-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-5094-sonli qarori ijrosi yuzasidan tumanda yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida Qumqo'rg'on tuman bandlikka ko'maklashish markazi direktori U.Safarovning hisobotini tinglab, xalq deputatlari Qumqo'rg'on tuman Kengashi

### Q A R O R   Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-apreldagi "2021-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-5094-sonli qarori ijrosi yuzasidan tumanda yangi ish o'rinlarini yaratish va aholini bandligini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida Qumqo'rg'on tuman bandlikka ko'maklashish markazi direktori U.Safarovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (M.Qultayev), tuman bandlikka ko'maklashish markazi (U.Safarov)ga;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida "Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda

kelgusidagi ustuvor vazifalar” bo‘yicha 2021-yil 14-dekabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va samarali tashkil etish;

tumanda 2022-yilda doimiy yangi ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlar ijrosini to‘liq bajarilishini ta‘minlash;

dastur ijrosi bo‘yicha belgilangan aholi bandligini ta‘minlash prognoz ko‘rsatkichlarining kunlik monitoring tizimini yuritish;

har oy yakunida sohaviy yo‘nalishlar kesimida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida keyingi oying 5 sanasiga qadar Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman Kengashiga hisobot kiritib borish topshirilsin.

3. Qumqo‘rg‘on tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Qultayev), Qumqo‘rg‘on tuman bandlikka ko‘maklashish markazi direktori (U.Safarov), tuman Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (B.Djumayev), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

Qumqo‘rg‘on tumanida faoliyat yuritayotgan tashkilotlardagi bo‘sh ish o‘rinlari hisobiga yoshlar, maktab bitiruvchilari, xotin-qizlarni doimiy ish o‘rinlari bilan ta‘minlash;

biriktirilgan mahallalarda barcha yo‘nalishdagi muammolarni yil yakuniga qadar uyma-uy yurish orqali ijtimoiy va boshqa obyektlarni to‘liq o‘rganish va ishsiz fuqarolarni aniqlash hamda ularni ish bilan ta‘minlash choralarini ko‘rish;

2021-yil uchun mo‘ljallangan bandlik dasturiga kiritilgan, biroq bajarilmagan tadbirlarning sabablarini aniqlash, amalga oshirilgan ishlarni tizimli tahlil qilish orqali yil yakuni bilan bandlik dasturini bajarish choralarini ko‘rish;

vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta‘minlash markazida bir martalik ishlarni bajaruvchi fuqarolarning mehnat faoliyatini tartibga solish, ular uchun zarur ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish va ishga joylashtirish masalalarini nazoratga olish;

Ishsiz fuqarolar, ayniqsa yoshlar, xotin-qizlar, qaytib kelgan mehnat migrantlarini mahalla darajasida kasb-hunarga, tadbirkorlikka o‘qitish ko‘lamini kengaytirish maqsadida mahallalarda kasb-hunar o‘qitish maskanlari tarmog‘ini kengaytirish;

Davlat mablagʻlari hisobidan ishsiz fuqarolar, kambagʻal oila aʼzolariga ularning bandligini taʼminlash va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash uchun berilayotgan moddiy yordam va subsidiyalar samaradorligini oshirish maqsadida ijtimoiy kontrakt tizimini joriy etish;

Mehnat bozorida talab yuqori boʻlgan ishchi kasblar boʻyicha fuqarolarning malaka darajasini tasdiqlash tizimini joriy etish masʼuliyati yuklatilsin.

4. Qumqoʻrgʻon tuman hokimining birinchi oʻrinbosari (M.Qultayev), tuman hokimining investitsiya va tashqi savdo masalalari boʻyicha oʻrinbosari (Ch.Shaymurotov), Qumqoʻrgʻon tuman Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash boʻlimi (B.Djumayev), tuman moliya boʻlimi (Sh.Poyanov), tuman xalq taʼlimi boʻlimi (N.Ismatov), tuman tibbiyot birlashmasi (R.Qoʻyliyev), Yoshlar ishlari agentligi Qumqoʻrgʻon tuman boʻlimi (A.Xoltoʻrayev), tuman bandlikka koʻmaklashish markazi (U.Safarov), tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda yaratiladigan yangi ish oʻrinlarining sektorlar kesimida manzilli roʻyxatlarini shakllantirish choralari amalga oshirsinlar.

5. Xalq deputatlari Qumqoʻrgʻon tuman Kengashi deputatlariga:

Qumqoʻrgʻon tuman Bandlikka koʻmaklashish markaziga ish soʻrab murojaat qilgan fuqarolarni “mahallabay” oʻrganish, taklif etilayotgan ish oʻrinlarini rad etayotgan fuqarolar bilan targʻibot-tushuntirish ishlarini olib borish;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida “Xizmatlar sohasini rivojlantirish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar” boʻyicha 2021-yil 14-dekabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videosektor yigʻilishida hududlarda yangi ish oʻrinlarini yaratish va aholi bandligini taʼminlash boʻyicha belgilangan vazifalar ijrosi ustidan qatʼiy deputatlik nazoratini olib borish masʼuliyati yuklansin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Qumqoʻrgʻon tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



R.B.Gapparov